



Togʻ-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar
sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish
boʻyicha tarmoq kengashi

Togʻ-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Togʻ-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Togʻ-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-009



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "Tog'-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar" sohalariga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi. TMR mazkur sohadagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu TMRning asosiy maqsadi – Milliy malakalar ramkasiga muvofiq ravishda Tog'-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha tizimlashtirish, ularga qo'yiladigan malaka talablari, zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlash orqali mazkur sohalarda mehnat resurslarining raqobatbardoshligini oshirish hamda malakalarni tan olish, baholash va rivojlantirish tizimini shakllantirish hisoblanadi.

TMRning asosiy vazifalari:

tarmoq doirasida kasbiy faoliyat turlariga mos malaka darajalarini yagona me'yoriy mezonlar asosida belgilash va ularni tizimli muvofiqlashtirish;

amaldagi va yangi shakllanayotgan kasb va lavozimlarni malaka darajalari asosida guruhlash, ularning mehnat faoliyati doirasini aniqlashtirish hamda kasbiy yo'nalishdagi xaritani ishlab chiqish;

sohaga oid kasbiy standartlar, ta'lim mazmuni va baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun zarur metodik va konseptual asos yaratish;

tarmoqlararo o'zaro bog'liq kompetensiyalar va malaka turlarini aniqlash orqali mehnat resurslarining mobilligini ta'minlash;

mutaxassislarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash hamda tasdiqlash jarayonlari uchun ilmiy-uslubiy asos yaratish;

mehnat bozori ehtiyojlariga javob beruvchi, kasbiy jihatdan tayyorlangan, moslashuvchan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilish;

kasbiy standartlarni ishlab chiqishda, malaka darajalarini belgilashda va kadrlar tayyorlash strategiyasini shakllantirishda tarmoqdagi amaldagi hamda

istiqbolli texnologik tendensiyalarni inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlash.

Ushbu TMRda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

energetik foydali qazilmalar – uglevodorodlardan farq qiladigan, energiyani hosil qilishda foydalaniladigan foydali qazilmalar. Ular jumlasiga ko'mirning barcha turlari, shu jumladan toshko'mir va kul rang ko'mir, antratsit, torf va radioaktiv minerallar kiradi;

foydali qazilma, mineral xom ashyolar – Yer po'stida qattiq, suyuq va gazsimon holatlarda uchraydigan, turli geologik jarayonlar natijasida to'plangan hamda miqdori, sifati, joylashish sharoitlariga ko'ra sanoatda ishlatishga yaroqli bo'lgan tabiiy mineral moddalar;

foydali qazilmalar – yer qa'ridagi kelib chiqishi noorganik va organik bo'lgan qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi tabiiy mineral hosilalar, shu jumladan sanoat ahamiyatiga molik yer osti suvlari, sho'r ko'llarning tuz eritmalari;

foydali qazilmalar koni – miqdori va sifati jihatidan o'zlashtirish obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan, tarkibida foydali qazilmalar mavjud yer qa'ri uchastkasi;

foydali qazilmalarni qazib olish – foydali qazilmalarni yer qa'ridan yuzaga chiqarib olish bilan bog'liq ishlar majmui;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

istiqbolli resurslar – asosan prognoz resurslar kabi baholanadi, lekin istiqbolli resurslar asosan uglevodorod yo'nalishida ishlatilib S3 toifasi bilan belgilanadi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

konchilik faoliyati – konni o‘zlashtirish bilan bog‘liq faoliyat, shu jumladan, qidiruv, geologik jihatdan o‘rganish, konchilik faoliyatining infratuzilma obyektlarini qurish va ularga xizmat ko‘rsatish, qazib olish, konsentratsiya, boyitish yoki qayta ishlash, ishlov berish, separatsiya hamda transportda tashish, shuningdek qattiq holdagi foydali qazilmalarni geologik jihatdan o‘rganish o‘tkazish, o‘zlashtirish, ishlab chiqarish yoki qayta ishlash maqsadida amalga oshiriladigan boshqa yordamchi faoliyat turlari;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kon-kimyo xom ashyosi – mineral pigmentlar, mineral tuzlar (inson iste‘mol qilishi uchun foydalaniladigan), kaliy tuzi, natriy sulfat, karbonatli tog‘ jinslari (ohaktosh, dolomitlar), mineral o‘g‘itlar (glaukonitlar, fosforitlar va boshqalar), shuningdek boshqa kon-kimyo xom ashyosi;

kon-ruda xom ashyosi – eruvchan shpat, dala shpati xom ashyosi, kvars va kvarsit, tabiiy grafit, shisha xom ashyosi, kvars qum, brusit marmar, talk va talk toshi, talkli magnezit, vollastonit, asbest, barit, vermikulit, qoliplash xom ashyosi, felzit, serpentinit va boshqa kon-ruda xomashyosi;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mineral xomashyo – qazib olingan va birlamchi ishlov berishdan o‘tkazilgan foydali qazilmalar;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

prognoz resurslar – ilmiy mezonlar, regional geologiya qidiruv ishlari natijalari, geofizik va geokimyoviy tadqiqotlar natijalari hamda boshqa geologik ma‘lumotlar asosida istiqbolli maydonlar va ayrim konlarda baholanadigan foydali qazilmalarning taxminiy miqdori. Prognoz resurslar deyarli barcha turdagi foydali qazilmalarning resurslarini baholash va hisobga olishda qo‘llaniladi, asoslanganligi va ishonchliligiga qarab R1 va R2 toifalariga bo‘linadi. Prognoz resurslar asosan izlash va baholash ishlarini asoslash uchun qo‘llaniladi;

qattiq holdagi foydali qazilmalar – yer osti qatlamlarida yoki yer yuzasida qattiq shaklda joylashgan tabiiy mineral hosilalar, organik moddalar va ularning aralashmalari, rudali va noruda foydali qazilmalar;

qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar – har qanday ishlov berilmagan, sochilgan holdagi, ora-sira joylashgan toshlar (olmos, zumrad, berill, opal, rubin,

sapfir, feruza, xrizoberill, shpinel, topaz, turmalin, sirkon, obsidian, peridot, oytosh, xrizopraz, ametist, kvars, yoqut, soizit, kordiyerit, skapolit va boshqa xomashyo);

qurilish materiallari va to'ldirgichlar – odatda qurilish sanoatida shag'al yoki blokli tosh sifatida foydalaniladigan foydali qazilmalar va ular bilan bog'liq materiallar (gil, qum, shag'al, ohaktosh va boshqa magmatik jinslar, loy, mergel, gips, bo'r, andezit, tuf, kristalli slanes, gilli slanes, tom yopishda ishlatiladigan slanets, qumtosh, kvars, to'ldirgichlar va qurilish toshi, serpentinit, peridotit, dunit, diorit, diabaz, bazalt, gabbro, siyenit, gneys, kvarsit va boshqa xom ashyo);

radioaktiv foydali qazilmalar – tarkibida radioaktiv izotoplar mavjud bo'lgan minerallar. Ular uranni, toriyni va boshqa radioaktiv minerallarni o'z ichiga oladi, bundan radiy va kaliy mustasno;

rudali foydali qazilmalar – tarkibida metallar mavjud bo'lgan foydali qazilmalar. Ular jumlasiga alyuminiy, surma, margimush, berilliy, vismut, bor, kadmiy, seziy, selestin, xrom, kinovar, kobalt, mis, galenit, galliy, germaniy, oltin, gafniy, ilmenit, indiy, temir, temir oksidi, qo'rg'oshin, litiy, magniy, marganes, simob, molibden, nikel, niobiy, platina guruhidagi metallar, piritlar, radiy, noyob yer elementlari (lantanoidlar va aktinoidlar), reniy, rubidiy, skandiy, selen, kumush, stronsiy, tantal, tellur, talliy, toriy, qalay, titan, volfram va uning rudalari, vanadiy, vulfenit, ittriy, rux hamda sirkon kiradi. Rudali foydali qazilmalar suvda erigan rudali foydali qazilmalarni o'z ichiga oladi;

shaxta, shaxta stvoli – kon ishlarini bajarish uchun, yer yuzasiga chiqish yo'liga ega bo'lgan, yer ostidagi tik yoki nisbatan qiya, ko'ndalang kesimi uncha katta bo'lmagan (4,5×6,5 m gacha) kon inshooti;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

uglevodorodlar – odatda energiya ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan, suyuq yoki gazsimon holatda bo'ladigan foydali qazilmalarning uglevodorod birikmalari. Ular jumlasiga xom neft, tabiiy gaz, eritilgan gaz, gaz kondensatlari, yonuvchi slaneslar va slanesli neft hamda ular bilan bog'liq komponentlar, noan'anaviy uglevodorodlar, shuningdek neft mahsulotlari va tabiiy gazni chuqur qayta ishlash mahsulotlari kiradi;

yer qa'ri – yer qobig'ining tuproq qatlamidan quyida joylashgan, tuproq qatlami mavjud bo'lmaganda esa yer yuzasidan yoki suv obyektlari tubidan quyida joylashgan, geologik jihatdan o'rganish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan chuqurlikka qadar yastangan qismi;

yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish – O'zbekiston Respublikasi hududini mintaqaviy geologik jihatdan o'rganishni, foydali qazilmalar konlarini izlash, baholash hamda qidirishni, ulardagi foydali qazilmalar zaxiralarining miqdori va sifatini, ularning texnologik xossalarini hamda iqtisodiy qimmatini, shuningdek yer qa'rining boshqa xossalarini belgilashni o'z ichiga oladigan, yer qobig'i geologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga doir maxsus tadqiqot ishlari majmui;

zaxiralar – geologiya-qidiruv ishlari natijasida hisoblanadigan foydali qazilmalarning miqdori. Zaxiralar baholash, qidirish hamda konni qazib olish davomida hisoblanadi va o'rganilganlik darajasi hamda ishonchligiga qarab A, V, S1 va S2 toifalarga bo'linadi (eng ishonchlisi A, V va S1 toifalari hisoblanadi). Zaxiralar baholash va qidirish ishlarini asoslash uchun hamda ishlab chiqarishga jalb etish uchun qo'llaniladi.

TMRni ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktabrdagi "Yer qa'ri to'g'risida"gi O'RQ-987-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Toshkent viloyatida sanoat-ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3153-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5083-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5159-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi" (IFUT-2.1) 94/MSt - sonli qarori;

O'zMSt 641:2025. 2025-yil 18-iyuldagi Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori MMK 2025;

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;
 MMK– Mashg‘ulotlar milliy klassifikatori;
 T/r – Tartib raqami;
 MCHJ – Mas‘uliyati cheklangan jamiyat;
 AJ – Aksiyadorlik jamiyati;
 DK – Davlat korxonasi;
 DM – Davlat muassasasi.

2.Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalari – bu yer qa‘rining geologik tuzilishini ilmiy asosda o‘rganish, foydali qazilma konlarini aniqlash, ularni iqtisodiy jihatdan samarali qazib olish, qayta ishlash, baholash hamda qazib olingan mineral resurslarni ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida xomashyo sifatida foydalanishga tayyorlash faoliyatlarini qamrab oluvchi strategik sanoat tarmog‘idir.

Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohasidagi TMR quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

B – seksiya Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat.

O‘zbekiston Respublikasida Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo‘lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	B – seksiya Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	05 Ko‘mir va lignit qazib olish	05.1 Toshko‘mir qazib olish	05.10 Toshko‘mir qazib olish	05.10.0 Toshko‘mir qazib olish
			05.2 Lignit qazib olish	05.20 Lignit qazib olish	05.20.0 Lignit qazib olish
		07 Metall rudalarini qazib olish	07.1 Temir rudasini qazib olish	07.10 Temir rudasini qazib olish	07.10.0 Temir rudasini qazib olish
			07.2 Rangli metall rudalarini qazib olish.	07.21 Uran va toriy rudalarini qazib olish	07.21.0 Uran va toriy rudalarini qazib olish
				07.29 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish	07.29.0 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish
		08 Tog‘-kon sanoati bilan bog‘liq boshqa faoliyat	08.1 Ochiq tosh, tuproq va qum konlarini ishlov berish	08.11 Pardozlash uchun tosh, ohaktosh, gips slanes va boshqa toshlarni qazib olish	08.11.0 Pardozlash uchun tosh, ohaktosh, gips slanes va boshqa toshlarni qazib olish

				08.12 Ochiq shag'al va qum konlarini ishlash, tuproq va kaolin qazib olish	08.12.1 Ochiq shag'al va qum konlarini ishlash
					08.12.2 Tuproq va kaolin qazib olish
					08.12.3 Kaolin va boshqa kaolin tuproqlarini boyitish va shunga o'xshash birlamchi qayta ishlash
		09 Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	08.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bilan bog'liq faoliyat	08.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati bilan bog'liq faoliyat	08.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati bilan bog'liq faoliyat
			09.9 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish	09.90 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish	09.90.0 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish
			09.90 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish	09.90.0 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish	09.90.0 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish
2.	C –seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat	24 Metallurgiya sanoati	24.1 Cho'yan, po'lat va temir qotishmalarni ishlab chiqarish	24.10 Cho'yan, po'lat va temir qotishmalarni ishlab chiqarish	24.10.0 Cho'yan, po'lat va temir qotishmalarni ishlab chiqarish
			24.2 Po'lat quvur, quvur o'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish	24.20 Po'lat quvur, quvur o'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish	24.20.0 Po'lat quvur, quvur o'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish
			24.3 Birlamchi ishlov berish yo'li bilan boshqa po'lat buyumlarni ishlab chiqarish	24.31 Sovuq holda cho'zish	24.31.0 Sovuq holda cho'zish
				24.32 Tasma va tor tasmalarni sovuq holda prokatka qilish (yoyish)	24.32.0 Tasma va tor tasmalarni sovuq holda prokatka qilish (yoyish)
				24.33 Sovuq holda qoliplash va falsovka qilish	24.33.0 Sovuq holda qoliplash va falsovka qilish

				24.34 Sovuq holda cho'zib tortish yo'li bilan sim ishlab chiqarish	24.34.0 Sovuq holda cho'zib tortish yo'li bilan sim ishlab chiqarish
			24.4 Asosiy qimmatbaho va rangli metallarni ishlab chiqarish	24.41 Asl (qimmatbaho) metallar ishlab chiqarish	24.41.0 Asl (qimmatbaho) metallar ishlab chiqarish
				24.42 Alyuminiy ishlab chiqarish	24.42.0 Alyuminiy ishlab chiqarish
				24.43 Qo'rg'oshin, rux, qalay ishlab chiqarish	24.43.0 Qo'rg'oshin, rux, qalay ishlab chiqarish
				24.44 Mis ishlab chiqarish	24.44.0 Mis ishlab chiqarish
				24.45 Boshqa rangli metallar ishlab chiqarish	24.45.0 Boshqa rangli metallar ishlab chiqarish
			24.5 Metall quyish	24.51 Cho'yan quyish	24.51.0 Cho'yan quyish
				24.52 Po'lat quyish	24.52.0 Po'lat quyish
				24.53 Yengil metallar quyish	24.53.0 Yengil metallar quyish
				24.54 Boshqa rangli metallar quyish	24.54.0 Boshqa rangli metallar quyish
		25 Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	25.4 Metallni yasash va shakllantirish hamda kukun metallurgiyasi	25.40 Metallni yasash va shakllantirish hamda kukun metallurgiyasi	25.40.0 Metallni yasash va shakllan-tirish hamda kukun metallurgiyasi
			25.5 Metallarga ishlov berish va metallarni qoplamalar bilan qoplash; metallni qayta ishlashning asosiy texnologik jarayonlari	25.51 Metallarni qoplamalar bilan qoplash	25.51.0 Metallarni qoplamalar bilan qoplash
				25.52 Metallarga issiqlik bilan ishlov berish	25.52.0 Metallarga issiqlik bilan ishlov berish
				25.53 Metallni qayta ishlashning asosiy texnologik jarayonlari	25.53.0 Metallni qayta ishlashning asosiy texnologik jarayonlari

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11111	Siyosiy davlat fuqarolik xizmatchilari
2	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
3	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
4	13219	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan ishlab chiqarish sanoati, energiya ta'minoti, suv ta'minoti, chiqindilarni yig'ish va tozalash sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari, b.g.k.
5	13220	Konchilik, qazib olish sanoatida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari boshliqlari
6	13241	Tovarlarni yetkazib berish, tarqatish va shunga o'xshash faoliyat bo'yicha xizmatlar rahbarlari
7	13242	Avtomobil transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari
8	21120	Meteorologlar
9	21141	Geologlar
10	21142	Geofiziklar
11	21143	Mineraloglar (geokimyo)
12	21144	Gidrogeologlar
13	21315	Mikrobiologlar (bakteriologlar)
14	21411	Ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhandislar
15	21441	Muhandis-mexaniklar (umumiy)
16	21461	Konchilik muhandislari
17	21462	Foydali qazilmalarni boyitish bo'yicha muhandislar
18	21469	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konchilik muhandislari, metallurqlar va turdosh soha professional mutaxassislari, b.g.k
19	21499	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan muhandislik va texnika sohasidagi professional-mutaxassislar, b.g.k.
20	21512	Energetika muhandislari
21	21529	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan elektronika muhandislari, b.g.k.
22	21654	Geodezistlar
23	24233	Mehnat munosabatlari bo'yicha professional-mutaxassislar
24	31119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan kimyo va fizika fanlari sohasida texniklar, b.g.k.
25	31151	Texnik-mexaniklar (umumiy)
26	31154	Avtomobilsozlik sohasidagi texniklar
27	31171	Konchilik sohasidagi texniklar
28	31172	Geologiya sohasidagi texniklar
29	31179	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konchilik va metallurgiya sohasidagi texniklar, b.g.k
30	31211	Tog'-kon sanoati brigadirlari
31	31222	Tog'-kon sanoati inspektorlari
32	31330	Kimyoviy xomashyoni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha nazoratchilar
33	43211	Omborlarda moddiy boyliklarni hisobga olish, qabul qilish va berish bilan band bo'lgan xodimlar

34	43219	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan omborlarda moddiy boyliklarni hisobga olish, qabul qilish va berish bilan band bo'lgan xodimlar, b.g.k.
35	43220	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) mahsulotlarni hisobga olish bilan shug'ullanadigan xodimlar
36	43222	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) bilan shug'ullanadigan dispetcherlar
37	43232	Transport dispetcherlari (temir yo'l transporti dispetcherlaridan tashqari)
38	43233	Quruqlik transporti xodimlari
39	51510	Xo'jalik ishlarini yuritish bo'yicha yordamchilar va ekonomikalar
40	51650	Haydovchilikni o'rgatuvchi yo'riqchi
41	71130	Sangtaroshlar
42	71140	Betonchilar va mozaikachilar
43	72130	Jo'vachilar (Valsovshiki)
44	72141	Metall konstruksiyalarini o'rnatuvchilar va yig'uvchilar
45	72149	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konstruksion material tayyorlovchilar va montaj qiluvchilar, b.g.k.
46	72159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan takelajchi va shu kabi kasblar ishchilari, b.g.k.
47	72212	Presslovchilar va shtamplovchilar
48	72311	Mexanik transport vositalari dvigatellari va transmissiyasini ta'mirlash bo'yicha avtomexaniklar va chilangarlar
49	72331	Temir yo'l transporti uskunalari ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar
50	72333	Sanoat va texnologik uskunalarini sozlash va ta'mirlash
51	72335	Energetika uskunalarini ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar
52	72336	Burg'ilash va tog'-kon uskunalarini ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar
53	72339	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan qishloq xo'jaligi va sanoat jihozlarini ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar, b.g.k.
54	73141	Abraziv va qattiq materiallar bilan shug'ullanadigan ishchilar
55	73229	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan bosma ishlari bilan shug'ullanuvchilar, b.g.k.
56	74110	Qurilishda elektromontajchilar
57	74121	Elektromontyorlar (umumiy yo'nalish)
58	74123	Maishiy elektr asboblari elektromontyorlari va elektromexaniklari
59	74129	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyorlar va elektromexaniklar, b.g.k.
60	74222	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uskunalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha elektromexaniklar
61	75210	Yog'ochga birlamchi ishlov berish bilan band bo'lgan ishchilar
62	75420	Portlatuvchilar
63	75320	Andozalar tayyorlovchilar va bichuvchilar
64	75433	Maxsus sohalar nazoratchilar
65	81111	Yer osti tog'-kon ishchilari va shaxtyorlar
66	81112	Ochiq usulda ishlov berish tog'-kon ishchilari

67	81113	Yer osti tog'-kon mashinalari operatorlari
68	81114	Ochiq usulda ishlov berish tog'-kon mashinalari operatorlari
69	81115	Geologik-qidiruv va topografik-geodezik mashinalar operatorlari
70	81119	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan tog'-kon ishchilari va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k.
71	81121	Rudaga ishlov berish va boyitish operatorlari
72	81122	Tog' jinslariga ishlov berish va boyitish operatorlari
73	81131	Neft va gaz quduqlarini burg'ilovchilar va turdosh kasblar ishchilari
74	81132	Konchilik sanoatida burg'ilovchilar va turdosh kasblar ishchilari
75	81133	Geologik va gidrogeologik quduqlarni burg'ilovchilar va turdosh kasblar ishchilari
76	81139	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan quduqlarni burg'ilovchilar va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k.
77	81141	Yig'ma temir-beton konstruksiyalarini ishlab chiqarish operatorlari
78	81149	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan beton, sement va boshqa mineral materiallardan mahsulot tayyorlash dastgohlari operatorlari, b.g.k.
79	81211	Ruda va metallni qizdirish pechlari operatorlari
80	81212	Rangli metall quyish mashinalari operatorlari
81	81213	Metall prokatlash stanlari operatorlari
82	81214	Metallarga termik ishlov berish operatorlari
83	81219	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan metall eritish uskunalariga xizmat ko'rsatish va metallga termik ishlov berish uskunalari ishchilari (operatorlari), b.g.k.
84	81221	Galvanotexniklar
85	81222	Metallarga himoya qobig'i berish qurilmalari operatorlari
86	81223	Metallash qurilmalari operatorlari
87	81224	Metall tozalash ishchilari
88	81229	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan silliqlash, metallash va metallarga himoya qobig'i berish qurilmalari operatorlari, b.g.k
89	81314	Kimyoviy distillyatsiya apparati va reaktor operatorlari
90	81319	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kimyoviy xomashyoni, neft va neft mahsulotlarini, boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlarni qayta ishlash zavodlariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchilar va turdosh kasb ishchilari, b.g.k.
91	81320	Fototexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchilar va shunga o'xshash kasb egalari
92	81420	Plastmassa ishlab chiqarish uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
93	81560	Poyabzal va galantereya buyumlari tayyorlash qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
94	81570	Kir yuvish va kimyoviy tozalash uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
95	81720	Yog'ochni qayta ishlash uskunalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha operatorlar
96	81819	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan shisha va keramika ishlab chiqarish uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
97	81890	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan sanoat qurilmalari va dastgohlari operatorlari, b.g.k.

98	83110	Lokomotiv mashinistlari
99	83421	Yer qazish va transheya mashinalari operatorlari
100	83423	Asfalt va beton ishlari mashinalari operatorlari
101	83429	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan yer qazuvchi va shunga o'xshash mashinalarning mashinistlari, b.g.k.
102	83432	Ortish-tushirish va transport qurilmalari operatorlari
103	83439	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kranlar, ko'tarish mashinalari va ortish-tushirish qurilmalari mashinistlari, b.g.k.
104	83440	Yuk ortuvchi mashinalar haydovchilari
105	89431	Kran va ko'tarish mashinalari operatorlari
106	93110	Tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati malakasiz ishchilari
107	93120	Yo'llar, to'g'onlar va shunga o'xshash inshootlarni qurish va ta'mirlashda band bo'lgan malakasiz ishchilar
108	93291	Metallurgiya sohasida malakasiz ishchilar
109	93294	Kimyo sanoatida malakasiz ishchilar
110	93295	Boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida malakasiz ishchilar
111	93299	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan ishlab chiqarish sohasida ishlaydigan malakasiz ishchilar, b.g.k.
112	93330	Yukchilar
113	96130	Hudud farroshlari (dvornik/supuruvchilar) va boshqa shunga o'xshash ishchilar
114	96210	Kuryerlar, yuk tashuvchilar, shveysarlar va boshqa shu kabi ishchilar

3. Tarmoq tahlili

Tarmoq kengashi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzurida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi negizida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tashkil etilgan.

Vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

tog'-kon sanoati va geologiya sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda mazkur yo'nalishlarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish orqali respublikaning mineral xom ashyo bazasini barqaror rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va foydali qazilmalarning yangi konlarini aniqlash, sanoat tarmoqlarining mineral xom ashyo bazasini diversifikatsiya qilish ishlarini tashkil etish;

foydali qazilmalar istiqbolli maydonlarini aniqlash uchun ilmiy-tadqiqot, mintaqaviy geologik tasvirlash, geofizik va burg'ilash ishlarini olib borish hamda foydali qazilmalar zaxiralarini ko'paytirishda geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish;

yer osti suvlaridan foydalanish va quduq burg'ilash tizimini yanada takomillashtirish, aholi orasida yer osti suvlaridan foydalanish madaniyatini keng

targ'ib qilish, ularning miqdor jihatdan kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish;

tog'-kon va metallurgiya sanoatini rivojlantirish, investitsiya hajmlarini ko'paytirish asosida yangi ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish, foydali qazilmalarni qazib olishni va qayta ishlashni ko'paytirish, ularni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning moddiy balanslarini shakllantirish, shuningdek, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori sifatli eksportbop qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish ishlarini muvofiqlashtirish;

yer qa'ridan foydalanish va sanoat xavfsizligini ta'minlash masalalarida shaffof tizim asosida o'z vaqtida va sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish, qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini takomillashtirish hamda yer qa'rining davlat fondini yuritish, ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash;

tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilishda qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish hamda davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ishlarini tashkillashtirish;

qimmatbaho metallar va toshlar, rangli, qora va noyob metallar, uran va ko'mirni qazib olish hamda qayta ishlash sohasini loyiha va injiniring xizmatlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlagan holda klaster usulida rivojlantirish;

sohada ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasi asosida zamonaviy fikrlaydigan va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini doimiy oshirib borish tizimini yaratish hamda xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish hisobiga texnologik tajriba va bilim almashuvini yo'lga qo'yish;

yirik ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish, ulardagi jarayonlarni keng raqamlashtirish va ilg'or dasturiy ta'minotlardan foydalangan holda zarur energiya resurslari va muhandislik tarmoqlari bilan uyg'unlikda hududiy infratuzilma dasturlari bilan uzviy bog'lash;

tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish orqali sohada import o'rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini oshirish;

sohaga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlarini yaratish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini yanada yaxshilash bo'yicha qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Vazirlik tizimidagi hamda tog'-kon sanoati, geologiya va metallurgiya sohasi tashkilotlari faoliyatida kiberxavfsizlikka tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish hamda ularga qarshi ta'sirchan choralar ko'rish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish.

Vazirlik tog'-kon sanoati munosabatlarini boshqarish hamda yer qa'rini geologik o'rganish, muhofaza qilish, undan foydalanish, shuningdek, tog'-kon munosabatlarini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, mazkur yo'nalishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining


faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda tizimdagi rahbarlik faoliyatini markazlashgan tarzda amalga oshiradigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlik (davlat korxonasi, davlat muassasalari, qo'shma korxonalar, inspeksiya va aksiyadorlik jamiyatlaridan iborat) o'n beshdan ortiq tizim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda tizimdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Mazkur tuzilma orqali tarmoqda geologik izlanishlardan tortib, foydali qazilmalarni qazib olish, qayta ishlash, ishlab chiqarish va eksportgacha bo'lgan to'liq texnologik zanjirni samarali tashkil etish, shuningdek, sohani barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat siyosati amalga oshiriladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida Tog'-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar tarmog'i salmoqli ulushga ega. 2025-yilning yanvar—sentabr oylarida tog'-kon va ishlab chiqarish sanoati bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 165,3 trln so'mga yetdi.

Ularning asosiy qismi tog' kon sanoatining tabiiy gaz qazib olishga (10,7 %) va ishlab chiqarish sanoatining to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishiga (13,3 %) to'g'ri kelmoqda.

Ushbu ko'rsatkichning yillar kesimidagi dinamikasi quyidagicha (yanvar-sentabr):



2025-yilda xususi sektor ishtirokida ishga tushirilgan loyihalar:

Turkiyaning MMG kompaniyasi bilan Piskentdagi Qoratog' konida oltin o'zlashtirish loyihasi (212 mln dollar).

Lasselsberger bilan Nurobodda quruq aralashma, lak-bo'yoq, mikrokalsit, terratsio-tosh va keramik plitalar chiqarish loyihasi (150 mln dollar).

Xitoyning Red Persimmon kompaniyasi bilan Kattaqo'rg'onda Ingichka konini o'zlashtirish loyihasi (80 mln dollar).

Tarmoq O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida eng yirik ish beruvchilardan bo'lib quyida Respublikada mavjud Tog'-kon sanoati, geologiya va metallurgiya sanoati bo'yicha tarmoq tarkibiga kiruvchi yirik sanoat komplekslari va ularning asosiy faoliyati hamda ularda mavjud ish o'rinlari va xodimlar soni keltirilgan.

Tarmoq tarkibiga kiruvchi yirik sanoat korxonalari va ishlab chiqarish komplekslari hamda ularning asosiy faoliyati

T/r	Sanoat korxonasi nomi	Konchilik-metallurgiya tarmog'ida qazib olinadigan, ishlab chiqariladigan va xizmat ko'rsatiladigan faoliyat turlari
1	"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ	Oltin, kumush
2	"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ	Mis, oltin, kumush, rux
3	"Navoiyuran" DK	Uran
4	"O'zbekko'mir" AJ	Lignit (qo'ng'ir ko'mir)
5	"Sharg'uniko'mir" AJ	Toshko'mir
6	"Texnologik metallar kombinati" AJ	Nodir metallar va qattiq qotishmalar
7	"O'zmetkombinat" AJ	Navli prokat va po'lat zoldirlar; Rangli metallar va metall buyumlar; Ferroqotishmalar; Issiqlik o'tkazmas materiallar; Gazsimon va suyuq argon, azot, kislorod; Yuqori omil koks.
8	"Toshkent metallurgiya zavodi" MCHJ QK	Ruxlangan metall prokatlar, Polimer qoplamali prokatlar
9	"O'zbek geologiya qidiruv" AJ	Hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini jadal amalga oshirish, respublika mineral-xom ashyo bazasi rivojlantirilishini ta'minlash.
10	"O'zbekgeofizika" AJ	"O'zbekgeofizika" AJ O'zbekiston Respublikasida kompleks geofizik ishlarni bajaruvchi yagona tashkilot hisoblanadi.

Tarmoqdagi yirik sanoat korxonalarining mavjud ishchilar soni

2025-yil 1-aprel holatiga

No	Sanoat kompleksi nomi	Ish o'rinlari	Xodimlar soni (nafar)
1	"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ	918	47473
2	"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ	313	34 645
3	"Navoiyuran" AJ	199	9482
4	"O'zbekko'mir" AJ	445	6004
5	"Sharg'uniko'mir" AJ	160	623
6	"Texnologik metallar kombinat" AJ	368	1414
7	"O'zmetkombinat" AJ	548	8857
8	"Toshkent metallurgiya zavodi" MCHJ QK	64	838
9	"O'zbek geologiya qidiruv" AJ	328	4052
10	"O'zbekgeofizika" AJ	141	3401
	JAMI:	3484	116789

Tarmoqning kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, tarmoq bo'ysunuvida ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda

kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish bo'yicha O'quv markazlari faoliyat yuritadi.

Tarmoq qoshidagi ilmiy tadqiqot institutlari hamda geologik tadqiqotlar bo'yicha davlat muassasalari		
No	Institut nomi	Faoliyat yo'nalishi
1	H.M Abdullayev nomidagi "Geologiya va geofizika instituti"	Yer qobig'i geologik tuzilishi va tarkibining chuqur fundamental tadqiqotlarini olib borish
2	"Geologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasi	Geologiya sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi ilmiy klaster hamda malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublikaning tayanch oliy ta'lim muassasasi
3	"Geologiya fanlari universiteti" davlat muassasasi	
4	"Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti" davlat muassasasi	Neft va gaz konlari geologiyasi bo'yicha qidiruv va tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi.
5	"Mineral resurslar instituti" davlat muassasasi	Sobiq O'rta Osiyo geologiya va mineral resurslar ilmiy-tadqiqot instituti, Eksperimental uslubiy ekspeditsiya va "VNIIGeolnerud" filiali negizida "Mineral resurslar instituti" davlat muassasasi tashkil etilgan
6	"Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi	Yer qa'rini Qonunda nazarda tutilgan asoslar, shartlar va chegaralarda foydalanishga beradi.
7	"O'zbekgidrogeologiya" davlat muassasasi	Respublika hududida yer osti suvlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi hamda yer osti suv zaxiralarini tizimli ko'paytirib borishni choralari ko'radi.

Tarmoq qoshidagi oliy ta'lim tashkilotlari hamda xodimlarni malakasini oshirish muassasalari.

No	Institut nomi	Ta'lim yo'nalishlari
1	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	Konchilik ishi, metallurgiya, geologiya va marksheyderlik ishlari, Konchilik elektr mexanikasi, Texnologik mashina va jihozlar
2	Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi "Milliy tadqiqot texnologik universiteti "MISiS"ning Olmaliq shahridagi filiali"	Metallurgiya, Kon ishlari, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, Mexanika.
3	"Tog'-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti" davlat muassasasi	Tog'-kon sanoati rahbarlari va xodimlarini malakalari oshiriladi

4	“Olmaliq KMK” AJ tarkibidagi muhandislik maktabi	Metallurgiya, konchilik ishi, mexanika, energetika, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va h.k
5	Tizim tashkilotlaridagi O’quv markazlari	Ishchi kasblar bo’yicha kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari tashkil qilinadi

Tizim osti tashkilotlarining O’quv markazlarida 600 dan ortiq ishchi kasblar bo’yicha maxsus o’quv dasturlar asosida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida ishlab chiqarishdan ajralgan va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda 25 000 dan ortiq xodimlar o’qitiladi.

Bundan tashqari yigirmadan ortiq oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda har yili tizimda faoliyat yuritayotgan 300 dan ortiq xodimlar tabaqalashtirilgan kontrakt asosida ta’lim olishsa, professional ta’lim muassasalari bilan 450 dan ortiq talabalar va tizim xodimlari dual ta’limda tayyorlanmoqda.

Turli ta’lim yo’nalishlari va turli Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan tanlov asosida 4000 ga yaqin bitiruvchilar ishga taklif qilinadi.

Quyidagi jadvalda tarmoqdagi dolzarb kasblar ro’yxati keltirilmoqda.

T/r	Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar nomi
1.	Ag’daruvchi
2.	Ajratuvchi
3.	Aralashmalar va eritmalar tayyorlash apparatchisi
4.	Chilangar-asbobsoz
5.	Avtogreyder mashinisti
6.	Bolg’a va pressda temirchi
7.	Bosh gidrogeolog – direktor o’rinbosari
8.	Boshqaruv pulti operatori
9.	Boyitish mahsulotlari nazoratchisi
10.	Buldozer mashinisti
11.	Bunkerlovchi
12.	Burg’ilash eritmasini tayyorlovchisi
13.	Burg’ilash texnigi
14.	Burg’ilash uskunasi mashinisti (Burg’ilash dastgohi mashinisti)
15.	Burg’ilash ustasi (Burg’ilash ustasi yordamchisi)
16.	Burg’ilash va tog’-kon ishlari bo’yicha muhandis-mexanik
17.	Chiqindi xo’jaligi rostlovchisi
18.	Dastgohda qoliplash qoliplovchisi
19.	Dasturiy boshqaruv dastgohi operatori
20.	Dozirovkachi
21.	Ekskavator mashinisti
22.	Ekspeditsiya bosh geologi (Ekspeditsiya (geologik, geologorazvedka, qidiruv, konchilik, topograf-geodezik va boshqalar) boshlig’i)
23.	Elektropechda po’lat erituvchi
24.	Elektr pechi po’lat erituvchisining yordamchisi

25.	Elektrovoz mashinisti (yer osti)
26.	Erituvchi
27.	Erituvchi (rangli metallurgiya)
28.	Filtrlovchi
29.	Flotator (flotatorchi)
30.	Frezalovchi
31.	G'alvirlovchi
32.	Geofizik apparatlar sozlovchisi
33.	Geofizik apparatlarni ta'mirlash bo'yicha texnik
34.	Geofizik ishlar ishchisi Geofizik ishlarda malakasiz ishchi
35.	Geofizik qurilmalarni ta'mirlash bo'yicha yetakchi muhandis Geofizik muhandis
36.	Geofizik-muhandis
37.	Geologik ishlarda kon ishchisi
38.	Geologik namunalarni saralovchi
39.	Geologik qidiruv va tasvirga tushirish ishlari ishchisi
40.	Geologiya bo'yicha muhandis-tahlilchi
41.	Geologiya xizmati chizmachisi
42.	Geolog-muhandis
43.	Geotexnologik quduqlar operatori
44.	Gidrogeologiya va kuzatish stansiyasi boshlig'i
45.	Gidrometallurg-apparatchi
46.	Issik prokatlash stani jo'vachisi
47.	Issiq metall yig'ishtiruvchi
48.	Issiq prokatlash stani valslovchisi
49.	Issiq prokatlash stanining boshqaruv posti operatori
50.	Issiqlik o'tkazmas mahsulotlar nazoratchisi (Issiqlik bilan ishlov berish nazoratchisi)
51.	Jo'vachi
